

ERKIN A'ZAM VA SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA BOLALAR VA O'SMIRLAR OBRAZI YARATISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Poyonova Dildora Anvar qizi

Termiz Davlat Universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili fakulteti 4-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19648156>

Annotatsiya. Ushbu tezisda yozuvchi hikoyalarida ichki monolog va kechinmalarning ahamiyati, ularning bola ruhiyatini ochishdagi o'zni haqida fikr yuritiladi. Erkin A'zam va Shukur Xolmirzayev ijodidagi o'ziga xos jihatlar, ularning hikoyalaridagi bolalar va o'smirlar ruhiyati va psixologiyasi o'rtasidagi tavofutlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: psixologizm, badiiy detal, ichki nutq, monolog, tabiat, sarkazm, tabiiylik.

Abstract. This thesis discusses the importance of internal monologues and experiences in the writer's stories, their role in revealing the child's psyche. The specific aspects of the work of Erkin A'zam and Shukur Xolmirzayev, the differences between the psyche and psychology of children and adolescents in their stories are discussed.

Keywords: psychologism, artistic detail, internal speech, monologue, nature, sarcasm, naturalness.

Shukur Xolmirzayev va Erkin A'zam hikoyalarida ichki nutq, monolog va kechinmalar tasviri bolalar ruhiyati va psixologiyasining muhim ochqichi bo'lib xizmat qiladi. Quyida ularning hikoyalaridan dalillar keltiraman. Xususan, bu holatni Shukur Xolmirzayevning "Zov ostida adashuv" kuzatishimiz mumkin.

Hikoyadagi bola obrazi agar Zovboshiga biror echkimi tushib ketadigan bo'lsa uni qidirishni to'xtatishlari, chunki Zovboshi juda chuqur va bo'rilar ko'p bo'lishini eshitganini aytadi. Inson har qanday sharoit va mashaqqatlarga qaramasdan hayotni sevishi, Xudo yaratgan barcha yaratilarni muqaddas bilishi lozim. Bu hikoyada ham o'tov qurib yozlik uyda yashagan tog'lik aholi hayoti, ular boshidan o'tgan turli xil voqeaalardan biri haqidadir.

Ular bu o'tovda yozda yashashadi. Har bir narsaning o'z nihoyasi, o'z yakuni bor deganlaridek, yoz nihoyasiga yetadi. Kunlar soviydi, butun oila o'z uyiga yo'l oladi. Otam o'ta kamgap edi- deydi bola. Bu xarakter detalining o'ziyoq bola atrof- muhit bilan o'z bilganicha tanishgan, ota o'z dunyosi bilan o'vora. G'oyo u boshqa dunyo odamidek.

"Tuman ostida qolgan tog' yon- bag'ridan o'z qishloqlariga ketayotgan oila havo o'ta namligidan aravamiz yurmay qoldi. Birinchi aravadan onam, keyin men, undan so'ng singlim tushdik. Otam esa aravani haydash bilan band"¹, - edi deyiladi. Bola o'ziga notanish bo'lgan tumanli olamda onasining ogohlantirishiga qaramasdan otasi yoniga bormoqchi bo'ladi. Adashib yurish mobaynida kimsasiz bir uyga duch keladi. uyni kezar ekan xayolidan o'tadi: "Onam bechora nuqul gap orasida "odam topilmaydi, narsa topiladi!" deydi. Bechora onaginam! Hozir ahvoling qanday ekan?.. Eh, onajon. Gapingizga ko'nmadim-da, o'zboshimchalik qildim! Lekin men sizlarga, o'zimizga yaxshilik qilmoqchi edim-ku?! Hay, mayli. Bo'lgan ish bo'ldi endi..."².

¹ Shukur Xolmirzayev "Zov ostida adashuv" hikoya

² Shukur Xolmirzayev "Zov ostida adashuv" hikoya

Shu kichik ichki monologning o'zida bola ruhiyatiga xos beg'uborlik, o'zini o'zi yupatish, onaga bo'lgan samimiy mehr singari hislarni sezishimiz, qalb kechinmalarini anglashimiz mumkin.

Hikoya davomida bola ichki monolog, o'z- o'zi bilan suhbat orqali yo'l davomida o'ziga o'zi dalda beradi. Ichki suhbat bola uchun madad, kuch, shuningdek hamroh vazifasini o'taydi, ichki monologlar orqali fikrlari va harakatlarini nazorat qiladi. masalan: "To'g'ri-da, yig'lab o'tirsam, birov meni yo'lga solib qo'yadi-yu, men ota-onamni topib olamanmi? Yo'q, albatta.

Harakat qilishim kerak". Shu singari ichki nutqlar bolakayga butun adashuv davomida dalda bo'ladi va Zovostidek dahshatli joydan osonlikcha qutiladi.

Adib esa bu monologlarni, kechinma tasvirlarini berish orqali bolalik ruhiyatini, ularning qalb kechinmalarini, bolalar psixologiyasidagi o'ylar, umuman olganda "bolalarcha fikrlash" ning mohiyatini o'quvchiga aniqroq anglatishga erishadi.

Erkin A'zam hikoyalaridagi bolalar Shukur Xolmirzayev qahramonlaridan farqli jamiyatdagi ma'naviy holatni ochib beruvchi vositadir.

Erkin A'zam hikoyalarida bolalar ko'pincha g'o'r ko'rinsa-da, aslida kattalardan samimiyroq va to'g'riso'zroq qilib chiziladi. Ular orqali muallif insoniy mehr-oqibat va ma'naviy masalalarni o'rtaga tashlaydi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida bolalar obrazi orqali inson hayotidagi o'zgarishlarning ta'sirini, bola ruhiyatidagi murakkab qirralarni ochib beradi. U bolalarni ko'proq realistic, ba'zan og'ir ijtimoiy sharoitda yoki qiziqarli va tasodifiy hayotiy vaziyatlarda tasvirlaydi. Uning asarlarida "bola nigohi" dunyoni boricha, barcha ziddiyatlari bilan ko'rsatishga xizmat qiladi.

Erkin A'zam hikoyalarida esa bolalar obrazi hayotimizdagi ma'naviy ahvolni ko'rsatuvchi ko'zgu sifatida gavdalanadi. U bolalar orqali kattalar dunyosidagi nuqsonlarni, ikkiyuzlamachiliklarni yoki ma'naviy tanazzulni fosh qiladi. Erkin A'zam uslubiga xos bo'lgan ironiya, sarkazm va kinoya bolalar tilida yoki ularga munosabatda yaqqol seziadi.

Shukur Xolmirzayevning qahramonlari ko'proq tabiat bilan uyg'unlikda, qishloq hayoti va milliy xarakter doirasida tasvirlanadi. Erkin A'zamda esa bolalar va o'smirlar, asosan, shaharlik yoki shaharlashgan qishloq bolalari.

Unda bolalar kattalardan ko'ra aqilliroq va aslida teran haqiqatlarni anglab yetgan obrazlardir. Erkin A'zam yosh qahramonlarining kichik dunyosi orqali kattalarning murakkab va ba'zan ziddiyatli vaziyatlarini fosh etadi.

Shukur Xolmirzayevda bola- shakllanayotgan shaxs. Erkin Az'amda bola – jamiyatda illat va nuqsonlarni fosh qiluvchi "ditektor". Unda bolalar kattalarning yolg'onlarini o'zlarining beg'uborligi bilan sindiirib tashlaydi.

Yana bir farqli jihati shundaki Shukur Xolmirzayev bolaning ichki dunyosini uning xatti-harakatlari, tabiat bilan muloqoti va og'ir vaziyatdagi tanlovi orqali ochadi. U bolani ortiqcha ideallashtirmaydi.

Uning qahramon bolalari qo'pol, qaysar va o'jar bo'lishi mumkin, lekin ular – tabiiy.

Erkin A'zamda bolalar nutqi va o'ylari orqali muallifning o'zi gapirayotganday tuyiladi.

Uning bolalari juda sezgir, shuningdek sabrli, matonatli, aqlli va halol. Masalan, "Navoiyni o'qigan bolalar" hikoyasida bolalar shunchaki kitobxon emas ma'naviyatimizning so'nggi qo'rg'onlari yang'lig' gavdalanadi. Badiiy detal va til nuqtayi nazaridan ham ma'lum farq bor, ya'ni Shukur Xolmirzayev dialektizmlardan o'rinli foydalanadi, bolalar nutqi sodda, jo'n, va hayotidir.

Erkin A'zam hikoyalarida ham bolalar samimiy va beg'ubor, ammo unda ko'proq yashirin kinoya va nozik qochiriqlar seziladi. Adib bolalarni "kichkina kattalar" sifatida tasvirlash orqali satirik effekt yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'rolova Mohichehra "Shukur Xolmirzayev hikoyalarida badiiy detallar" maqola
2. "Shukur Xolmirzayev" Turkiy adabiyot durdonalari 25- tom. "O'zbekiston" Toshkent-2022
3. Erkin A'zam "Gonoluluga elchi" hikoyalar va qissalar to'plami